MAKTABGACHA KATTA YOSHDAGI BOLALARDA KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYALARNI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYALARI

Baxromova Gulmira Ergashali qizi

Qo‘qon davlat universiteti Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (Maktabgacha ta’lim) yo‘nalishi 1-bosqich magistranti

Email :baxromovagulmira11@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada maktabgacha katta yoshdagi bolalarda kommunikativ kompetensiyalarni rivojlantirish orqali ularning ijtimoiy muhitda va tengdoshlari orasida, ota-onasi hamda tarbiyachilari bilan muloqot qilishda fikrini erkin bildira olishi, ular bilan faol muloqotga kirisha olishi, turli ijtimoiy vaziyatlarda boshqalar bilan samarali, to‘g‘ri va maqsadga muvofiq muloqot qila olish qobiliyati nazariy va amaliy jihatdan o‘rganiladi. Shuningdek, zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida bolalarning nutqiy va ijtimoiy muloqot ko‘nikmalarini shakllantirish usullari tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari kommunikativ kompetensiyalarni rivojlantirishda interfaol metodlarning samaradorligini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: kommunikativ kompetensiya, interfaol metod, rivojlantiruvchi texnologiyalar, maktabgacha ta’lim, nutq rivoji, ijtimoiy moslashuv,ta’lim muhiti.

АННОТАЦИЯ

В данной статье теоретически и практически исследуется способность детей старшего дошкольного возраста свободно выражать свое мнение в социальной среде и среди сверстников, общаться с родителями и воспитателями, вступать с ними в активное общение, эффективно, корректно и целенаправленно взаимодействовать с другими в различных социальных ситуациях посредством развития коммуникативных компетенций. Также анализируются методы формирования речи и социально-коммуникативных навыков детей на основе

современных педагогических технологий. Результаты исследования показывают эффективность интерактивных методов в развитии коммуникативных компетенций.

Ключевые слова: коммуникативная компетенция, интерактивный метод, развивающие технологии, дошкольное образование, развитие речи.

ANNOTATION

This article theoretically and practically studies the ability of older preschool children to freely express their opinions in a social environment and among peers, to communicate with their parents and educators, to enter into active communication with them, to communicate effectively, correctly and purposefully with others in various social situations through the development of communicative competencies. Also, methods of forming children's speech and social communication skills based on modern pedagogical technologies are analyzed. The results of the study show the effectiveness of interactive methods in the development of communicative competencies.

Keywords: communicative competence, interactive method, developmental technologies, preschool education, speech development.

Kirish (Introduction)

Bugungi globallashuv va tezkor ijtimoiy o‘zgarishlar sharoitida bolalarning kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirish dolzarb ilmiy-pedagogik masalalardan biri sifatida qaralmoqda, chunki kommunikativ kompetensiya nafaqat til va nutq ko‘nikmalarini , balki shaxslararo munosabatda muvaffaqiyatli bo‘lish, jamiyatda moslashish, o‘z fikrini erkin ifoda etish kabi bilimlarni o‘z ichiga oladi.

O‘zbekiston Respublikasida uchinchi Renessans poydevorini barpo etishning strategik yo‘nalishlaridan biri — har tomonlama rivojlangan, mustaqil fikrlaydigan va ijtimoiy muloqotga tayyor shaxsni tarbiyalashdir. Bu borada maktabgacha ta’lim tizimi uzluksiz ta’limning birlamchi va eng muhim bo‘g‘ini sifatida e’tirof etiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganidek: *"Biz maktabgacha ta’lim tizimini nafaqat bola parvarishi, balki uning shaxs sifatida shakllanishining asosi deb bilamiz."* [1]

Bugungi kunda O'zbekistonda ham bolalarning kommunikativ ko'nikmalarini rivojlantirish bo'yicha bir qator islohotlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, 2019-yilda qabul qilingan "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi Qonun, [2] shuningdek, Prezidentning 2022-yil 28-yanvardagi PQ-81-son qarori asosida tasdiqlangan “2022-2026 yillarda O'zbekiston Respublikasida maktabgacha va maktab ta'limini rivojlantirish strategiyasi”[3] mazkur sohadagi davlat siyosatini mustahkamlab berdi. Strategiyada kommunikativ ko'nikmalarni rivojlantirishga qaratilgan ilg'or metodikalar, kreativ va interaktiv yondashuvlarni keng joriy etish vazifalari belgilangan.

Maktabgacha ta’lim tizimida bolalarning kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirish ularning shaxs sifatida shakllanishida muhim ahamiyatga ega.

Kommunikativ kompetensiya so‘zining asl ma’nosi bu - qayerda ,qanday muloqot qilishni bilish san’ati hisoblanadi. Kommunikativ kompetensiya bolaning o‘z fikrini aniq ifodalashi, boshqalar bilan muloqotga kirishishi, tinglash va tushunish qobiliyatlarini o‘z ichiga oladi. Bugungi kunda ta’lim jarayonida nafaqat bilim berish, balki bolalarda muloqot madaniyatini shakllantirish ham asosiy vazifalardan biridir. Shu sababli maktabgacha katta yoshdagi bolalarda kommunikativ kompetensiyalarni rivojlantirish texnologiyalarini o‘rganish dolzarb hisoblanadi.

Nazariy tahlil va olimlar qarashlari:

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-3955-son qaror “Maktabgacha ta’lim tizimini boshqarishni takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”.htps.lex.uz

.

[2]O‘zbekiston Respublikasining Qonuni, 16.12.2019 yildagi O‘RQ-595-son..htps.lex.uz.

[3]“2022-2026 yillarda O'zbekiston Respublikasida maktabgacha va maktab ta'limini rivojlantirish strategiyasi” PQ-81-son.LexUz.

Kommunikativ kompetensiya tushunchasi ilmiy muomalaga XX asrning o‘rtalarida kirib kelgan bo‘lib, u ko‘p qirrali hodisadir.

L.S. Vigotskiyning "Madaniy-tarixiy nazariyasi"ga ko‘ra, bola shaxsi muloqot va ijtimoiy hamkorlik jarayonida shakllanadi. Uning fikricha, *"Bola rivojlanishidagi har bir funksiya sahnaga ikki marta chiqadi: avval ijtimoiy darajada (odamlar o‘rtasida), keyin psixologik darajada (bola ichida)"*. [4] Bu esa muloqotni rivojlanishning asosiy omili sifatida ko‘rsatadi.

D.B. Elkonin maktabgacha yoshdagi bolaning asosiy faoliyati o‘yin ekanligini ta’kidlab, aynan syujetli-rolli o‘yinlar orqali bola muloqot normalari va ijtimoiy rollarni o‘zlashtirishini isbotlab bergan. U o’z asarida “Syujetli-rolli o‘yinlar orqali bolalarda muloqot ko‘nikmalari shakllanadi”[5]- degan fikrni ilgari surgan.

Zamonaviy tadqiqotchilar (masalan, A.A. Leontyev) kommunikativ kompetensiyani shaxsning "muloqotga tayyorligi" va "muloqot vositalarini egallaganlik darajasi" [6] sifatida ta’riflaydilar.

Ye.I.Tixeyevaning fikricha, maktabgacha ta’lim muassasasi bolalarning barcha qobiliyatlarini rivojlantirgan holda nutqni egallashning juda ahamiyatli va muhim qobiliyatiga e’tiborni qaratishi darkor: ”Chunki nutqni muntazam o‘rgatish, nutq va tilni metodik rivojlantirish maktabgacha ta’lim muassasasidagi tarbiya ishlarining asosini tashkil qilmog‘i lozim.”[7]

Metodlar (Methods)

Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarda sog‘lom turmush tarzini shakllantirish uzoq muddatli va tizimli yondashuvni talab qiladigan jarayon ekanligi haqidagi fikrlar keltirildi.

1.Pedagogik kuzatuv: Bolalarning tabiiy muloqot jarayonida (o‘yin, mehnat, ta’limiy faoliyat) tengdoshlari va kattalar bilan o‘zaro munosabatlarini, nutqiy

[4] Vygotskiy, L. S. "Мышление и речь" (1934). 42-b
[5] Elkonin, D. B. "Психология игры" (1978). 164-b
[6] Leontyev, A. A. "Психология общения" (1997). 120-b
[7]Тихеева Е.И..Развитие речи детей. – М.: Просвещение, 1976.

faolligini hamda noverbal muloqot vositalaridan foydalanish darajasini muntazam kuzatish.

2.Suhbat va so‘rovnoma metodlari: Bolalarning lug‘at boyligi va muloqotga kirishuvchanlik darajasini aniqlash maqsadida maxsus savol-javoblar o‘tkazish, shuningdek, tarbiyachilar va ota-onalar o‘rtasida bolalarning ijtimoiy moslashuviga oid anketa so‘rovnomalarini tashkil etish.

3.Sotsiometrik metod: Guruh ichidagi bolalarning o‘zaro munosabatlari, yetakchilik va rad etilish holatlarini aniqlash orqali jamoaviy kommunikatsiyani baholash.

4.Matematik-statistik metodlar: Tadqiqot davomida olingan ko‘rsatkichlarni tahlil qilish, natijalarning ishonchliligini va samaradorlik darajasini foizlarda hamda diagrammalarda ifodalash."

Tadqiqot jarayonida pedagogik kuzatish, tahlil, suhbat va tajriba-sinov, statistic-tahlil metodlaridan foydalanildi. Maktabgacha ta’lim tashkilotida bolalarning nutqiy faoliyati va muloqot ko‘nikmalari o‘rganildi. Shuningdek, interfaol o‘yinlar, rolli o‘yinlar, dialogik mashg‘ulotlar va muammoli vaziyatlar asosida amaliy tajribalar o‘tkazildi. Mazkur metodlar bolalarning kommunikativ rivojlanish darajasini aniqlashga yordam berdi.

Natijalar (Results)

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, interfaol pedagogik texnologiyalar bolalarning nutqiy faolligini sezilarli darajada oshiradi. Rolli va didaktik o‘yinlar bolalarda erkin fikrlash, o‘z fikrini ifodalash va hamkorlikda ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirdi. Muammoli vaziyatlar esa bolalarning mustaqil qaror qabul qilish va muloqot jarayonida tezkor javob berish qobiliyatini kuchaytirdi. Umuman olganda, kommunikativ kompetensiyalarni rivojlantirishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar samarali ekanligi aniqlandi.

Muhokama (Discussion)

Olingan natijalar shuni ko‘rsatadiki, maktabgacha ta’lim jarayonida interfaol metodlar va o‘yin texnologiyalari bolalarning kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Bolalar uchun qulay va qiziqarli ta’lim muhiti yaratilganda ular muloqotga faol kirishadi va o‘z fikrlarini erkin bayon etadi. Pedagogning to‘g‘ri yo‘naltirishi va individual yondashuvi ham ushbu jarayonda muhim rol o‘ynaydi. Shu boisdan, ta’lim jarayonida innovatsion texnologiyalardan keng foydalanish zarur.

Xulosa

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, maktabgacha katta yoshdagi bolalarda kommunikativ kompetensiyalarni rivojlantirish orqali bolalarning erkin muloqot qilishi, ijtimoiylashuvi, jamoaga faol kirishishi samarali darajada ortadi, lug‘at boyligi oshadi. Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda kommunikativ kompetensiyalarni rivojlantirish ta’lim tizimining muhim vazifalaridan biridir. Interfaol va o‘yin texnologiyalaridan foydalanish bolalarning nutqiy rivojlanishini tezlashtiradi va ularning ijtimoiylashuviga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababli maktabgacha ta’lim jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni keng joriy etish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1 O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-3955-son qaror “Maktabgacha ta’lim tizimini boshqarishni takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”.

2. Pedagogika va psixologiya asoslari. O‘quv qo‘llanma. Toshkent.

3. Maktabgacha ta’lim metodikasi. Ilmiy maqolalar to‘plami.

4. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar bo‘yicha tadqiqotlar.

5.Vygotskiy, L. S. "Мышление и речь" (1934). 42-b

6.Elkonin, D. B. "Психология игры" (1978). 164-b

7. Leontyev, A. A. "Психология общения" (1997). 120-b

8.D.R.Babayeva.Nutq o‘stirishnazriyasi va metodikasi.(Darslik). -T.:”Barkamol fayz media”,2018,-432 b.

9. Omonov H.T., Xo‘jayev N.X., Madyarova S.A., Eshchonov E.U. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. Darslik. – T.: Iqtisod-moliya, 2009. – 240 b.

10..Safarova.M.X.”Maktabgacha yoshdagi bolalarda kommunikativ kompetensiyalarni rivojlantirish masalalari.” - Ilmiy maqola, “Maktabgacha va maktab ta’limi” jurnali,2025-yil.oktyabr.